

**ZAMONAVIY TA’LIMDA BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINIF O’QITUVCHILARI
METAKOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

Shobekova Nigora Mamurovna

ADPI mustaqil tadqiqotchisi,

Qo’qon shahridagi 1-son maktab o’qituvchisi

E-mail: nigorashobekova234@gmail.com Tel: +998 90 308 77 26

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21219034>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda bugungi ta’lim transformatsiyasi sharoitida boshlang’ich sinf bo’lajak o’qituvchilarining metakompetentlik xususiyatlarini shakllantiruvchi yetakchi omillar hamda subyektiv qonuniyatlar tahlil qilingan. Maqolada bo’lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi tarkibidagi polifunksionallik, kasbiy refleksiya va meta-subyektlik fenomenining amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so’zlar: metakompetentlik, meta-subyektlik, boshlang’ich ta’lim, metakognitiv monitoring, kasbiy refleksiya, raqamli texnologiyalar, ta’lim tizimi, intellektual salohiyat.

Аннотация: В данном исследовании проанализированы ведущие факторы и субъективные закономерности формирования метакомпетентности будущих учителей начальных классов в условиях современной трансформации образования. В статье раскрыто практическое значение полифункциональности, профессиональной рефлексии и феномена метасубъектности в структуре профессиональной подготовки будущих специалистов.

Ключевые слова: метакомпетентность, метасубъектность, начальное образование, метакогнитивный мониторинг, профессиональная рефлексия, цифровые технологии, система образования, интеллектуальный потенциал.

Abstract: This research analyzes the leading factors and subjective regularities behind the formation of metacompetence in future primary school teachers under the conditions of modern educational transformation. The article reveals the practical significance of multifunctionality, professional reflection, and the phenomenon of meta-subjectivity within the framework of vocational training.

Keywords: metacompetence, meta-subjectivity, primary education, metacognitive monitoring, professional reflection, digital technologies, educational system, intellectual potential.

Kirish. Jahon ta’lim makonida kechayotgan integrativ jarayonlar va globallashuv tendensiyalari oliy pedagogik ta’lim tizimi oldiga moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo’ymoqda. Ayniqsa, boshlang’ich sinf o’qituvchisining kasbiy faoliyati o’zining universal tabiati va ko’p qirraliligi bilan ajralib turadi. Ushbu tayyorgarlikning markazida faqatgina tor doiradagi fan bilimlari emas, balki shaxsning o’z-o’zini rivojlantirish trayektoriyasini belgilovchi integral xususiyat — metakompetentlik turadi. Psixologiya fanida J. Flavell tomonidan asoslangan metakognitsiya konsepsiyasiga tayanadigan bo’lsak, [1] metakompetentlik, mohiyatan, subyektning "bilish haqidagi bilimi" bo’lib, u ta’lim oluvchining o’z intellektual operatsiyalarini nazorat qilish va strategik rejalashtirish imkoniyatini ifodalaydi.

Zamonaviy oliy pedagogik ta’lim tizimining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — kelgusi kasbiy muhitda har qanday pedagogik vaziyatga moslasha oladigan, ijodiy va

mustaqil fikrleydigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish ta’lim sifatini fundamental darajada ta’minlashni talab etadi. Bugungi kunda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayoni shunchaki nazariy bilimlarni o’zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, talabalarda meta-subyektlik kompetensiyalari va kasbiy refleksiyaning rivojlantirish pedagogik muvaffaqiyatning bosh omili sifatida namoyon bo’lmoqda. Bu borada o’zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar masalaning turli konseptual va didaktik jihatlarini yoritib beradi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlari hamda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy sifatlarini tizimli shakllantirish talab etiladi. Professor N.A. Muslimov o’z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, [2] bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligi faqat bilimlar jamlamasi emas, balki ularni kutilmagan vaziyatlarda amalda qo’llay olish qobiliyatidir. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi faoliyatining o’ziga xos xususiyati uning bir vaqtning o’zida ham filolog, ham matematik, ham tabiatshunos sifatida namoyon bo’lishidadir.

Pedagogik kadrlar tayyorlashning texnologik asoslarini tadqiq etgan professor N.A. Muslimov o’z ilmiy ishlarida bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishning aniq modellarini ishlab chiqqan. Ushbu yondashuv shuni ko’rsatadiki, kasbiy tayyorgarlik tizimli xarakterga ega bo’lishi va har bir bo’lajak mutaxassisda o’z faoliyatini loyihalash hamda natijasini oldindan ko’ra bilish ko’nikmasini tarbiyalashi lozim. Bu jarayon bevosita integratsiyalashgan ta’lim muhitini talab qiladi. Negaki, bugungi kun maktabi o’qituvchidan faqat bitta fan doirasida qolib ketmaslikni, balki fanlararo bog’liqlikni ko’ra olishni talab etadi. R.A. Mavlonova va N.H. Rahmonulova ta’kidlaganidek, ta’limda integratsiya jarayoni — bu o’quvchilar dunyoqarashining yaxlitligini ta’minlovchi vositadir. Boshlang’ich sinflardan boshlanadigan ushbu integrativ yondashuv oliy ta’lim tizimida talabalarining meta-subyektlik ko’nikmalarini shakllantirish uchun mustahkam zamin bo’lib xizmat qiladi. Meta-subyektlik talabaga o’quv fanlaridan tashqariga chiqqan olish va olingan universal bilimlarni hayotiy, kasbiy muammolarni hal etishda qo’llash imkonini beradi.

Mazkur ko’p qirralilik masalasini o’rgangan R.A. Mavlonova boshlang’ich ta’limda fanlararo integratsiyaning ta’minlash o’quvchida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishini asoslab bergan. Bu holat esa talabadan yuqori darajadagi polifunksional fikrlash tizimini talab qiladi.

Oliy ta’lim jarayonida metakompetentlik tasodifiy tarkib topmaydi, balki u ma’lum bir tizimli bosqichlar orqali rivojlanib boradi. Rossiyalik tadqiqotchi D. Demidova [3] o’z ilmiy ishlarida metakognitiv rivojlanishning dinamik bosqichlarini farqlash lozimligini ko’rsatadi. Uning yondashuviga ko’ra, jarayon diagnostik bosqichdan boshlanib, unda talabaning o’z bilimlaridagi bo’shliqlarni va real imkoniyatlarini “Nimani bilmayman?” so’rovi ostida tahlil qilishi kuzatiladi. Keyingi proyektiv, faoliyatli hamda refleksiv bosqichlarda esa amaliy pedagogik vaziyatlarda metakognitiv bilimlarni integratsiya qilish va erishilgan natijalarni tanqidiy baholash jarayonlari kechadi.

Olimlarning zamonaviy yondashuvlariga ko’ra, metakompetentlik tarkibidagi eng muhim elementlardan biri bu — meta-subyektlik xususiyatidir. V.I. Zvonitskiy yozganidek, [4] meta-subyektlik shaxsning ta’lim paradigmasi markazida turib, o’z o’quv faoliyatini mustaqil rejalashtirishi, axborotlarni tizimlashtirishi, mantiqiy modellashtirishi va muammolarni echish qobiliyatida namoyon bo’ladi. Hozirgi raqamli ta’lim muhitida ushbu ko’nikmalarni an’anaviy ma’ruzalar orqali shakllantirish imkonsiz. Shu sababli universitet



ta’limida virtual laboratoriyalar va interfeys-platfomalardan unumli foydalanish talabani mustaqil ta’lim traektoriyasini boshqaruvchi asosiy omil bo’lib xizmat qiladi.

Tadqiq etilayotgan manbalar va o’rganilgan ilmiy yondashuvlar meta-subyektlik va kasbiy refleksiya komponentlarining o’zaro uyg’unligi nechog’lik muhimligini tasdiqlaydi. Ushbu ikki xususiyat birlashganda talabalarni shunchaki dasturni bajaruvchi ijrochi emas, balki kelgusi kasbiy muhitda raqobatbardosh, ijodiy fikrlaydigan va doimiy ravishda o’z-o’zini mukammallashtirib boruvchi yetuk pedagog kadrlar bo’lib yetishishlariga zamin yaratadi. Bu esa o’z navbatida, mamlakatimizda ta’lim sifatini butunlay yangi bosqichga olib chiqishning fundamental asosidir.

Tadqiqot natijalari va taqdim etilgan nazariy manbalar tahlili asosida zamonaviy oliy pedagogik ta’lim jarayoni uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy refleksiyani oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dars mashg’ulotlariga talabalarning o’z-o’zini monitoring qilish tizimini joriy etish lozim;

- o’quv jarayonida keys-stadi va muammoli-vaziyatli loyihalardan keng foydalanish, bu orqali talabalarda kutilmagan pedagogik kolliziyalarda moslashuvchan qaror qabul qilish ko’nikmasini o’stirish zarur;

- raqamli va integrativ ta’lim modullarini ko’paytirish orqali talabalarni axborot makonida mustaqil tadqiqot olib borishga yo’naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari metakompetentligini shakllantirish ta’lim sifatini ta’minlovchi fundamental omildir. Meta-subyektlik va kasbiy refleksiya komponentlarining o’zaro uyg’unligi talabalarni kelgusi kasbiy muhitda raqobatbardosh, ijodiy fikrlaydigan va doimiy o’z-o’zini mukammallashtirib boruvchi yetuk pedagog kadrlar bo’lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. – 120 b.

2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang’ich ta’limda integratsiya. Metodik qo’llanma. – Toshkent: "O’qituvchi", 2013. – 144 b.

3. Sharipov Sh.S. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini integrativ asosda rivojlantirish. Metodik tavsiyanoma. – Toshkent: TDPU, 2011. – 48 b.

4. Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o’quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishda modernizatsiyalashgan didaktik ta’minotning o’rni // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2017. – № 2. – B. 24-29.